

# Vazirlar Kengashining Qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha kotibiyatining funktsional vazifalari to`g`risida

## N I Z O M

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha kotibiyatining (keyingi o`rinlarda kotibiyat deb ataladi) funktsional vazifalarini belgilaydi.

2. Kotibiyat Vazirlar Kengashining funktsional tarkibiy bo`linmasi hisoblanadi.

3. Kotibiyat o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyalari va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengeshining qarorlari va boshqa hujjatlariga, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Kotibiyat o`z faoliyatini Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari rahbarligida amalga oshiradi.

5. Kotibiyat o`ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarishda Vazirlar Kengashining boshqa tarkibiy bo`linmalari, davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa organlar va tashkilotlar bilan o`zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

### 2-bob. Kotibiyatning vazifalari va funktsiyalari

6. Quyidagilar kotibiyatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini rivojlantirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tarkibiy o`zgartirishni ta`minlash;

dehqonchilik va agrotexnologiyalarning ilg`or usullarini joriy etish chora-tadbirlarini ko`rish, qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor tamoyillari va mexanizmlari asosida xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlar, bo`g`inlar va tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

suv resurslaridan oqilona foydalanish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish va suv iste`molining bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, suv xo`jaligi ob`ektlaridan foydalanish ishlarining va sug`oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarining bajarilishini muvofiqlashtirish;

qishloq xo`jaligini, suv xo`jaligini va o`rmon xo`jaligini rivojlantirish hududiy dasturlarini ishlab chiqish ishlarini tashkil etish, ushbu sohalarga tashqi va mahalliy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlarini ko`rish;

chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikning ozuqa bazasini mustahkamlash, naslchilik ishlarini rivojlantirish, hayvonlarni sun`iy urug`lantirish xizmatlarini kengaytirish, zooveterinariya xizmati ko`rsatish tarmog`ini rivojlantirish ishlarini tashkil etish;

ipakchilikning ozuqa bazasini kengaytirish va mustahkamlash, yuqori mahsuldor tut ipak qurtini etishtirish, tirik pilla etishtirishni ko`paytirish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning saqlanishi ta`minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish;

qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, dastlabki qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va mahsulotlarni eksport qilish, shuningdek, qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi ob`ektlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

7. Kotibiyat o`ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyalari va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengeshining, Vazirlar Kengashining qarorlari va topshiriqlari bilan Kotibiyatga yuklangan vazifalarni bajarish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining tegishli xizmatlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning o`rinbosarlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining apparati, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi va Vazirlar Kengashining kotibiyatga oid topshiriqlari bo`yicha tegishli tahliliy, ma`lumotnoma, statistik materiallar va takliflarni umumlashtiradi va tayyorlaydi;

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengeshiga ko`rib chiqish uchun kiritiladigan, shuningdek, Vazirlar Kengashi Raisi tomonidan qabul

qilinadigan tegishli normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi;

sohaga oid topshiriqlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tegishli tashkiliy chora-tadbirlarni va nazorat rejalarini ishlab chiqadi;

muammoli masalalarni hal etish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, shuningdek, kotibiyatga tegishli sohalarni rivojlantirishning istiqbolli vazifalarini amalga oshirish yuzasidan takliflar va aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqadi hamda Vazirlar Kengashi Raisiga va bevosita Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosariga taqdim etadi;

davlat dasturlari amalga oshirilishi, sohaga oid topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli tizimlangan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va yuritadi;

Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari ishtirokida o'tkaziladigan yig'ilishlar o'tkazilishini ta'minlaydi va mas'ullarni jalb etgan holda ishlarni muvofiqlashtiradi;

Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari kotibiyati ish rejasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini amaldagi qonunlarga muvofiq ko'rib chiqadi;

Vazirlar Kengashining faoliyati to'g'risida jamoatchilikni belgilangan tartibda xabardor qilishni tashkil etadi;

kotibiyatda ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

8. Kotibiyat qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funktsiyalarni ham bajaradi.

### **3-bob. Kotibiyatning huquqlari va javobgarligi**

9. Kotibiyat o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlar Kengashining Raisi va o'rinbosarlari muhokamasida ko'rib chiqiladigan hamda kotibiyat vakolatiga oid va tasarrufidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralaridan, shahar va tumanlar hokimliklaridan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik sub'ektlaridan zarur hollarda har qanday jamoat tashkilotlaridan amaldagi tartib qonunlar doirasida ma'lumotlar so'rab olishga;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, tumanlar va shahar hokimliklari, boshqa tashkilotlar, Vazirlar Kengashining tegishli tarkibiy bo'linmalariga tezkorlik bilan hal etishni talab qiladigan hamda kotibiyatga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, tumanlar va shahar hokimliklari, boshqa tashkilotlarda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarining bajarilishi yuzasidan ishlarni belgilangan tartibda o'rganish;

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, shuningdek, kompleks vakolatiga kiruvchi barcha masalalar bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, hokimliklar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ishini o'rganish hamda ularga amaliy yordam ko'rsatish.

10. Kotibiyatning javobgarligi:

o'ziga yuklangan vazifalar hamda funktsiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining hujjatlari va topshiriqlariga muvofiq kotibiyatga tegishli takliflar va hujjatlar loyihalari har tomonlama va o'z vaqtida tayyorlanishiga;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan Vazirlar Kengashiga, ya'ni kotibiyatga yuklatilgan vazifalar yuzasidan kiritiladigan takliflar va hujjatlar sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishining tashkil etilishi, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi, shuningdek, asoslangan xulosalar tayyorlanishiga;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan hujjatlar va takliflar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish sifati, shuningdek, kiritilgan loyihalar va qabul qilingan qarorlar amalga oshirilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash to'g'risida"gi 1999 yil 12 yanvardagi 12-sonli qaroriga muvofiq ijro intizomi ta'minlanishiga;

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining qarorlari va topshiriqlarining kotibiyatga bevosita tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilishi holatining o'z vaqtida o'rganilishi uchun javob beradi.

### **4-bob. Kotibiyatning tuzilmasi**

11. Kotibiyatning tuzilmasiga kotibiyat boshlig'i, bosh mutaxassis va etakchi mutaxassis kiradi.

Kotibiyatning tuzilmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tasdiqlanadi.

12. Kotibiyatning faoliyati mazkur Nizomga muvofiq tashkil etiladi.

13. Kotibiyat o`z faoliyatida Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosariga bo`ysunadi.

14. Kotibiyat boshlig`i Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari taqdimnomasi bo`yicha Vazirlar Kengashi Raisining qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

15. Kotibiyat va guruh xodimlari Vazirlar Kengashi Raisining Qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari taqdimnomasi bo`yicha Vazirlar Kengashi Raisining qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

16. Kotibiyat nizomi Vazirlar Kengashi Raisining qarori bilan tasdiqlanadi.

### **5-bob. Kotibiyat faoliyatini tashkil etish**

17. Kotibiyat ishlari O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyalari va boshqa qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlariga, O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o`rinbosarlari topshiriqlariga, Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi va Vazirlar Kengashining qarorlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, Vazirlar Kengashining ish rejalari asosida tashkil etiladi.

Kotibiyat o`z faoliyatini yarim yillik va yillik ish rejalari asosida olib boradi.

18. Kotibiyatda har haftada yig`ilishlar o`tkazilib, berilgan topshiriqlar, rejalarining bajarilishi nazorat etilib, yangi haftaga mo`ljallangan ishlar va topshiriqlar belgilab olinadi.

19. Kotibiyatda ish yuritilishi, hujjatlarning o`tishi kotibiyat mutaxassislari tomonidan olib boriladi hamda shu haqda muntazam ravishda Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosariga ma`lumot berib boriladi.

20. Kotibiyat boshlig`i:

Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosarining ko`rsatmasi va topshiriqlariga asosan ishni tashkil etadi va quyidagi ishlarni amalga oshiradi;

qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini rivojlantirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tarkibiy o`zgartirishni ta`minlash;

dehqonchilik va agrotexnologiyalarning ilg`or usullarini joriy etish chora-tadbirlarini ko`rish, qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga bozor tamoyillari va mexanizmlari asosida xizmat ko`rsatuvchi tarmoqlar, bo`g`inlar va tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

suv resurslaridan oqilona foydalanish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish va suv iste`molining bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, suv xo`jaligi ob`ektlaridan foydalanish ishlarining va sug`oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarining bajarilishini muvofiqlashtirish;

qishloq xo`jaligini, suv xo`jaligini va o`rmon xo`jaligini rivojlantirish hududiy dasturlarini ishlab chiqish ishlarini tashkil etish, ushbu sohalarga tashqi va mahalliy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlarini ko`rish;

chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikning ozuqa bazasini mustahkamlash, naslchilik ishlarini rivojlantirish, hayvonlarni sun`iy urug`lantirish xizmatlarini kengaytirish, zooveterinariya xizmati ko`rsatish tarmog`ini rivojlantirish ishlarini tashkil etish;

ipakchilikning ozuqa bazasini kengaytirish va mustahkamlash, yuqori mahsuldor tut ipak qurtini etishtirish, tirik pilla etishtirishni ko`paytirish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning saqlanishini ta`minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish;

qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, dastlabki qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va mahsulotlarni eksport qilish, shuningdek, qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi ob`ektlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

agrosanoat kompleksi tarkibidagi vazirlik va tashkilotlardan belgilangan vazifalar bo`yicha tegishli ma`lumotlarni talab qiladi hamda Vazirlar Kengashi darajasida bajarilishi lozim, ularning xizmat bobidagi masalalarni bajarish choralari ko`radi;

Shuningdek, kotibiyat boshlig`i bevosita kotibiyatning boshqaruvini amalga oshiradi, mutaxassislarning faoliyatini tashkillashtiradi va kotibiyatga yuklatilgan vazifalarni bajarishda shaxsan mas`ul hisoblanadi;

kotibiyat ish rejasini shakllantiradi va uning bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

kotibiyatga yuklangan vazifalarni bajarishda kotibiyat xodim(lar)iga ishlarni taqsimlaydi va bevosita ijrosini nazoratga oladi;

boshqaruv apparatida amal qiladigan Yo`riqnomaga asosan, ish yuritishning olib borilishini ta`minlaydi;

o`ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bo`yicha Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari ishlarini tashkil qiladi.

Vazirlar Kengashiga kiritilgan takliflarning hamda kotibiyat faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar bo`yicha Vazirlar Kengashi Raisining hujjatlari loyihalari ko`rib chiqilishini ta`minlaydi, ularning ekspert jihatdan ishlab chiqilishini, qabul qilingan hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladi;

tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan takliflarni va hujjatlar loyihalarini har tomonlama tahlil qiladi, ular bo`yicha tahliliy materiallarni va ekspert takliflarini tayyorlaydi, shuningdek, ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zarur tarzda

kelishilishini ta`minlaydi;

materiallar va hujjatlar loyihalari to`g`risida belgilangan tartibda Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosariga axborot beradi;

tegishli funktsional masalalar va hujjatlar bo`yicha tizimlashtirilgan ma`lumotlar bazasi shakllantirilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda yangilanishini tashkil etadi;

Vazirlar Kengashi Raisi va Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari tomonidan kotibiyatga yuklatilgan vazifalarga taalluqli masalalar yuzasidan o`tkaziladigan majlislar, har haftadagi apparat yig`ilishlarida va barcha komissiyalarda hamda kotibiyat sohasiga kiruvchi masalalar bo`yicha o`tkaziladigan boshqa yig`ilishlarda ishtirok etadi;

agar kotibiyat mudiri vaqtinchalik bo`lmasa, uning majburiyatlarini bosh mutaxassis vaqtinchalik bajaradi;

qishloq va suv xo`jaligi sohasini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesi va Vazirlar Kengashi Raisi qarorlari bajarilishini tashkil etadi;

kotibiyat tasarrufidagi rahbar lavozimlarga amaldagi va istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirish yuzasidan takliflar kiritadi;

zaxiraga kiritilgan nomzodlarni tayyorlab borish ishlarini tashkil etadi;

Vazirlar Kengashi Raisi va Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosarining topshiriqlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Kotibiyat mudiri qishloq xo`jaligi kompleksi tarkibidagi vazirlik, boshqarma va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

## 21. Bosh mutaxassis:

Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari va kotibiyat boshlig`ining ko`rsatmasi va topshiriqlariga asosan ishni tashkil etadi va quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

Kotibiyat boshlig`i bo`lmagan davrida uning vazifasini bajaradi.

Qoraqalpog`iston Respublikasida Qishloq va o`rmon xo`jaligi korxonalarida suv xo`jaligi ob`ektlarini qabul etib olish bo`yicha davlat qabul qilish komissiyasi;

Vazirlar Kengashi huzuridagi Orol va Orolbo`yi muammolari bo`yicha Kengashi ishlarini muvofiqlashtiradi.

yuqoridagi ko`rsatilgan Kengash va komissiyalar yig`ilishi bayonlarini tayyorlab, tasdiqlatib, tegishli korxonalariga etkazadi va bajarilishini nazorat qiladi;

irrigatsiya-melioratsiya chora-tadbirlarining, suv xo`jaligi ob`ektlaridagi qurilish ishlarini tahlil qilib boradi;

yuqori idoralardan kelgan hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladi, o`zi etakchilik etadigan soha masalalari bo`yicha Vazirlar Kengashiga kelib tushgan qaror, farmoyish, xatlar va boshqa hujjatlarning bajarilishini ta`minlaydi;

respublikamizning suv xo`jaligi, suv xo`jaligi qurilishi va ekologik masalalari bo`yicha bajarilishi zarur ishlarni nazorat qiladi hamda Vazirlar Kengashi Raisiga har oyning, chorakning yakuni bo`yicha tegishli ma`lumotlarni tayyorlab taklif kiritadi;

Qoraqalpog`iston Respublikasi Suv xo`jaligi Kengashi, "Melioratsiya" dasturi va chet ellar bilan hamkorlikda ishlash loyihalarini amalga oshirish;

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash to`g`risida"gi 1999 yil 12 yanvardagi 12-sonli qaroriga muvofiq ijro intizomini ta`minlaydi.

Agrosanoat kompleksi tarkibidagi vazirliklardan, tashkilotlardan va korxonalardan kotibiyatga tegishli korrespondentsiyalarning kirish va chiqish ishlarini nazorat qiladi.

## 22. etakchi mutaxassis:

Vazirlar Kengashi Raisining qishloq va suv xo`jaligi masalalari bo`yicha o`rinbosari va kotibiyat boshlig`ining ko`rsatmasi va topshiriqlariga asosan ishni tashkil etadi va quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

fermer xo`jaliklari hisob-kitobi, debitor-kreditor qarzlarga monitoring yuritadi, statistik hisobotlar olinishiga amaliy yordam ko`rsatib, Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosariga tegishli ma`lumotlar tayyorlaydi;

o`z xizmat vazifasi doirasida ulardan ma`lumotlarni talab etadi;

Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosarlarining hamda kotibiyat boshlig`ining topshirig`i bo`yicha yuqorida ko`rsatilgan vazirliklar va tashkilotlar ishlarini olib borish bo`yicha tegishli qarorlar, farmoyishlar loyihalari va takliflarini tayyorlaydi;

har chorak yakuni bo`yicha kotibiyatga tegishli vazirliklar, tashkilotlar va boshqa korxonalardan zarur ma`lumotlarini talab etadi, yig`ilishga chaqiradi va Vazirlar Kengashi majlisiga tegishli bayonnomalarni tayyorlaydi;

fermer, tomorqa uchastkalarida meva-sabzavot, poliz, kartoshka va uzum etishtirish dasturlarining bajarilishini, agrofirmalar, zaxiraga qishloq xo`jaligi mahsulotlarini g`amlash, Shimoliy-G`arbiy harbiy okrugiga shartnoma asosida mahsulot etkazib berish ishlarini muvofiqlashtiradi;

meva, sabzavot, poliz, kartoshka va uzum etishtirish agrotexnikasini nazorat qilish, tanlov o`tkazib, tegishli ma`lumotlarni kotibiyatga taqdim etadi, tegishli vazirlik, tashkilotlar va boshqa korxonalardan olingan zarur ma`lumotlarni tahlil qilib, Vazirlar Kengashi yig`ilishiga tayyorlaydi.

Ko'rib chiqildi:

Izlash

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)